

ONLAYN PLATFORMALAR VA MOBIL ILOVALAR ORQALI CHET TILLARINI O'RGATISH TAJRIBALARI.

Abduqodirova Ziyoda Jamol Qizi

*Guliston davlat pedagogika instituti, tillarni o'qitish fakulteti, xorijiy til va adabiyot:
ingliz tili yo'nalishi, 1-kurs talabasi.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali xorijiy tillarni o'rgatishning samaradorlidi, afzalliklari hamda muammolari yoritilgan. Maqolada Duolingo, BBC Learning English, Hello Talk va boshqa omma orasida mashhur bo'lgan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish tajribalari tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarning o'quv motivatsiyasi va mustaqil ta'lim ko'nikmalariga mobil ilovalarning ijobiy ta'sirlari asoslab beriladi. Yakunda chet tillarini raqamli muhitda samarali o'qitish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *onlayn ta'lim, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar, xorijiy tillarni o'qitish, interaktiv topshiriqlar, o'quv motivatsiyasi*

Annotation : *This article highlights the effectiveness, advantages, and challenges of teaching foreign languages through online platforms and mobile applications. It analyzes the experiences of using popular tools such as Duolingo, BBC Learning English, Hello Talk, and other social networks. The article also substantiates the positive impact of mobile applications on students' learning motivation and independent learning skills. Finally, it provides methodological recommendations for effective foreign language teaching in a digital environment.*

Keywords : *online education, social networks, mobile applications, foreign language teaching, interactive tasks, learning motivation.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются эффективность, преимущества и проблемы обучения иностранным языкам с помощью онлайн-платформ и мобильных приложений. Анализируется опыт использования таких популярных ресурсов, как Duolingo, BBC Learning English, Hello Talk и других социальных сетей. Также обосновано положительное влияние мобильных приложений на учебную мотивацию и навыки самостоятельного обучения студентов. В заключение разработаны методические рекомендации по эффективному обучению иностранным языкам в цифровой среде.*

Ключевые слова: *онлайн-обучение, социальные сети, мобильные приложения, обучение иностранным языкам, интерактивные задания, учебная мотивация.*

Bugungi kunda raqamli texnologiyaloar ta'lim tizimining achralmas qismiga aylanib bormoqda. Xususan, chet tillarini o'qitishda onlayn platformalardan foydalanish ko'plab tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilgan. Masalan, M.Godwin-Jones (2018) o'zining "Emerging Technologies : Mobile-Assisted Language Learning" nomli maqolasida mobil qurilmalar til o'rganish jarayonida mustaqillik, moslashuvchanlik va

motivatsiyani oshirishni ta'kidlaydi. Shu nuqtayi nazardan, turli mobil ilovalardan foydalanish qulay muhit yaratadi, foydalanuvchilarni qiziqtiradigan turli topshiriqlar orqali ularning faolligini oshiradi. Zamonaviy metodlar orqali hozirgi salohiyati yuqori bo'lgan avlodning til o'rganishga intilishini oshirmoqda.

Avvalambor, ushbu maqolada bir necha yil ommalashgan ta'limning masofaviy turning afzalliklari va kamchiliklarini ko'rib chiqamiz.

So'nggi yillarda onlayn ta'lim butun dunyo ta'lim tizimida eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlardan biriga aylandi. Axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi natijasida ta'lim jarayonini masofadan turib tashkil etish imkoniyati kengaydi. UNESCOning 2020-yilgi hisobotiga ko'ra, pandemiya davrida dunyo bo'yicha 1,5 milliarddan ortiq o'quvchi va talaba onlayn o'qishga o'tgan, bu esa raqamli ta'limning zaruriyatga aylanganini ko'rsatadi. Onlayn ta'limning asosiy afzalliklaridan biri — bu moslashuvchanlik va erkinlikdir. Talaba o'ziga qulay vaqtda, istalgan joyda ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Anderson ta'kidlaganidek, "Onlayn ta'lim-shaxsiylashtirilgan o'quv muhitini yaratib, har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga moslashadi". Bu holat ayniqsa xorijiy til o'rganish jarayonida muhim, chunki o'rganuvchilar o'z sur'atida, takrorlash va mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bundan tashqari, onlayn platformalar o'quvchilarni interaktiv topshiriqlar orqali faol ishtirok etishga undaydi. Masalan, Duolingo yoki Hello Talk dasturlari o'yinlashgan topshiriqlar orqali til o'rganish jarayonini qiziqarli qiladi va motivatsiyani oshiradi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali til o'rganuvchilar o'zaro muloqot qilishi, tajriba almashishi mumkin. Bu esa kommunikativ yondashuvni qo'llashga yordam beradi.

Ammo onlayn ta'limning ayrim kamchiliklari ham mavjud. Ulardan biri — yuzmayuz muloqotning yetishmasligidir. O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi bevosita aloqa cheklangani sababli ayrim talabalarda ijtimoiy izolyatsiya, o'qishga nisbatan befarqlik holatlari kuzatiladi. Shuningdek, barqaror internet tarmog'ining yo'qligi, texnik nosozliklar va raqamli savodxonlikning pastligi ham o'qitish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi (Zhao, 2020).

Mobil ilovalarning xorijiy til o'qitishdagi o'rni shundayki, Sharples ta'kidlashicha, mobil o'qitish— bu "o'quvchini joy, vaqt va sharoitdan qat'i nazar bilim olish imkoniyati bilan ta'minlovchi yangi pedagogik paradigma"dir.

Duolingo, BBC Learning English, Hello Talk, Busuu, Memrise kabi ilovalar til o'rganishning yangi formatini shakllantirdi. Duolingo platformasi foydalanuvchiga tilni bosqichma-bosqich o'rganish, talaffuzni mashq qilish, grammatikani mustahkamlash imkonini beradi. Ilova o'yinlashgan tizimga asoslangan bo'lib, har bir to'g'ri javob uchun ball beriladi, bu esa o'quvchining motivatsiyasini oshiradi. BBC Learning English esa o'quvchilarni real hayotiy vaziyatlar orqali til muhitiga olib kiradi, bu esa kommunikativ yondashuvni mustahkamlaydi. Hello Talk va Tandem kabi ijtimoiy tarmoqqa o'xshash ilovalar foydalanuvchilarga dunyo bo'ylab til o'rganayotgan insonlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish, yozishma yoki ovoqli chat orqali til mashqi o'tkazish imkonini beradi. Bu usul til o'rganishdagi autentik muloqotni ta'minlaydi va o'quvchini tabiiy til muhiti bilan tanishtiradi.

Mobil ilovalarning yana bir muhim jihati — ular moslashuvchan va shaxsga yo'naltirilgan ta'limni qo'llab-quvvatlaydi. O'quvchi o'zining bilim darajasiga, qiziqishiga va bo'sh vaqtiga mos mashqlarni tanlay oladi. Bu esa an'anaviy dars shaklida yetarli bo'lmagan individual yondashuvni kuchaytiradi.

Biroq, ayrim tadqiqotchilar (Kukulska-Hulme, 2021) mobil ta'lim samaradorligi o'qituvchi tomonidan metodik yo'l-yo'riqlar berilgandagina yuqori bo'lishini ta'kidlaydilar. Chunki mobil ilovalar o'quvchini mustaqil o'rganishga undasa-da, o'qituvchining nazoratisiz bilimni chuqur egallash qiyin kechadi. Shu sababli, mobil texnologiyalarni an'anaviy o'qitish bilan integratsiyalashgan holda qo'llash eng maqbul yondashuv hisoblanadi. Umuman olganda, mobil ilovalar xorijiy til o'rganishda o'quvchilarga qulaylik, interaktivlik, tezkor fikr-mulohaza olish va haqiqiy muloqot muhiti yaratish imkoniyatini beradi. Ular nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning mustaqil o'rganish madaniyatini ham shakllantiradi.

Chet tillarini raqamli muhitda samarali o'qitish bo'yicha metodik tavsiyalar:

Raqamli texnologiyalar xorijiy tillarni o'qitish jarayoniga yangi yondashuvlarni olib kirdi.

O'qituvchi endilikda faqat bilim manbai emas, balki ta'lim jarayonini boshqaruvchi va yo'naltiruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois raqamli muhitda samarali o'qitish uchun quyidagi metodik tavsiyalarni e'tiborga olish muhimdir.

1. Aralash (blended) o'qitish modelini qo'llash: Raqamli vositalar an'anaviy darslarni to'liq almashtirmasligi, balki ularni to'ldirishi lozim. Masalan, o'quvchilar grammatikani Duolingo yoki BBC Learning English orqali mustaqil o'rganib, keyinchalik auditoriyada o'qituvchi bilan muloqot asosida mustahkamlashlari mumkin. Bu model o'quvchilarda nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish ko'nikmasini shakllantiradi.

2. Interaktiv topshiriqlar va multimedia resurslaridan foydalanish: Videodarslar, audio mashqlar, vizual testlar o'quvchilarning e'tiborini oshiradi va turli o'rganish uslublariga mos keladi. Masalan, Padlet, Quizlet, Kahoot kabi vositalar orqali dars jarayonini qiziqarli, bahsli va raqobatbardosh muhitda tashkil etish mumkin. Bu o'quvchilarda faol ishtirok va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

3. Mustaqil ta'limni rag'batlantirish: O'qituvchi raqamli platformalardan foydalangan holda talabalarni o'z-o'zini nazorat qilishga o'rgatishi kerak. Masalan, o'quvchilar o'z yutuqlarini muntazam kuzatib boradigan reyting tizimlarini joriy etish ularning javobgarligini oshiradi. Shu bilan birga, talabalarga o'z maqsadini aniqlash, o'quv jadvalini tuzish va o'zlashtirishni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish tavsiya etiladi.

4. Raqamli savodxonlikni oshirish: O'qituvchi va talabalarning raqamli kompetensiyasi ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shu sababli muntazam raqamli pedagogika bo'yicha treninglar, onlayn kurslar va vebinarlar tashkil etish muhim. Bu jarayon o'qituvchilarga zamonaviy platformalardan to'g'ri va maqsadli foydalanish imkonini beradi.

5. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi teskari aloqani kuchaytirish: Onlayn ta'limda samaradorlikni oshirish uchun tezkor va doimiy feedback muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchi har bir topshiriq bo'yicha izoh berib, o'quvchining xatolarini aniqlash va to'g'rilash yo'lini ko'rsatishi lozim. Bu nafaqat o'rganish sifatini, balki motivatsiyani ham oshiradi.

6. Raqamli muhitda o'qitish etikasi va xavfsizligini ta'minlash: Talabalarga internet madaniyati, axborot xavfsizligi, plagiat va mualliflik huquqi haqida tushuncha berish zarur. Bu raqamli ta'lim jarayonining sog'lom va mas'uliyatli yo'nalishda rivojlanishini ta'minlaydi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, mobil ilovalar yordamida o'qitish o'quvchilarning o'quv faolligini, muloqot ko'nikmalarini va o'z-o'zini nazorat qilish salohiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Biroq samarali natijaga erishish uchun raqamli vositalarni an'anaviy metodlar bilan integratsiyalash, teskari aloqa tizimini yo'lga qo'yish va o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish zarur.

Shuningdek, o'quvchilarning motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash, mustaqil ta'limni rag'batlantirish va axborot madaniyatini shakllantirish raqamli ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilanadi.

Shu nuqtayi nazardan, chet tillarini o'qitishda raqamli platformalar va mobil ilovalardan foydalanish nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki global raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Kelgusida raqamli texnologiyalar asosidagi til o'qitish metodikalarini yanada takomillashtirish, sun'iy intellekt, adaptiv ta'lim tizimlaridan foydalanish yo'nalishida tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Anderson, T. (2017). The Theory and Practice of Online Learning (3rd ed.). Athabasca University Press.
2. Godwin-Jones, R. (2018). Emerging technologies: Mobile-assisted language learning. *Language Learning & Technology*, 22(3), 2–11.
3. Kukulska-Hulme, A. (2021). Mobile-assisted language learning [MALL]: Opportunities and challenges. *ReCALL*, 33(2), 1–15.
4. Moore, M. G. (2013). *Handbook of Distance Education* (3rd ed.). Routledge.
5. Sharples, M. (2019). *Practical Pedagogy: 40 New Ways to Teach and Learn*. Routledge.
6. UNESCO. (2020). *Education in a post-COVID world: Nine ideas for public action*. UNESCO Publishing.
7. Zhao, Y. (2020). COVID-19 as a catalyst for educational change: Opportunities and challenges in online learning. *Journal of Educational Change*, 21(4), 523–535.
8. Warschauer, M., & Kern, R. (Eds.). (2000). *Network-Based Language Teaching: Concepts and Practice*. Cambridge University Press.
9. Stockwell, G. (2016). Mobile language learning: Innovation and challenges. *Language Learning & Technology*, 20(2), 143–155.

10. Beatty, K. (2013). Teaching & Researching: Computer-Assisted Language Learning (2nd ed.). Routledge.